

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

27 478

133,9 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

26 002

130,1 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)

1 078


120,3 %



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


4



*Mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik*



*Xususiy korxona
birlik*



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

6

24
aksiyadorlik
jamiyati

133
unitar korxona

299
boshqalar

4 870
oilaviy korxona

7 147
xususiy korxona

9 809
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

22 282

tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar-fevral oylarida 1 078 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 576 ta, xususiy korxonalar – 195 ta, oilaviy korxonalar – 256 ta, muassasalar – 33 ta va boshqalar – 18 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 5 369 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 642 taga yoki 3,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 870 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 197 taga yoki 2,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarishsiz qolganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, 10 240 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 218 taga yoki 127,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 809 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 956 taga yoki 124,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 576 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 184 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, 471 tani tashkil etib, ulardan 446 tasi yoki 94,7 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 74 taga yoki 119,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 32 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	4 307	4 779	6 082	7 853	9 809
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	359	448	650	867	1 407
Sanoat	632	754	1 008	1 260	1 561
Qurilish	648	771	1 040	1 386	1 584
Savdo	1 379	1 455	1 809	2 425	3 052
Tashish va saqlash	425	491	515	591	641
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	148	178	231	310	368
Axborot va aloqa	66	75	84	105	114
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	37	51	70	93	123
Boshqa turlar	613	556	675	816	959

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	58	67	215	372	446
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	11	62	96	110
Sanoat	35	34	59	98	121
Qurilish	2	1	10	22	26
Savdo	3	10	51	108	137
Tashish va saqlash	4	4	8	7	9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	7	19	17
Axborot va aloqa	1	1	1	2	2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	3	4	6
Boshqa turlar	4	4	14	16	18

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)**

13




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	446	146	300
Termiz sh.	210	36	174
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	22	6	16
Bandixon	1	0	1
Boysun	8	7	1
Muzrabot	18	6	12
Denov	16	9	7
Jarqo'rg'on	15	9	6
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	17	10	7
Termiz	46	19	27
Uzun	31	16	15
Sherobod	18	8	10
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (12,2 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Qumqo'rg'on (6,9 %), Sho'rchi (6,7 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,3 %), Uzun (5,2 %), Qiziriq (5,0 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (4,9 %), Muzrabot (4,7 %), Angor (4,6 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (21,3 %), Denov (13,6 %), Sherobod (8,1 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Qumqo'rg'on (7,2 %), Boysun (6,0 %), Sho'rchi (5,6 %), Uzun (5,0 %), Termiz (4,7 %), Sariosiyo (4,2 %), Muzrabot (4,1 %), Angor (3,6 %), Oltinsoy (3,1 %), Bandixon (3,1 %) va Qiziriq (3,0 %) ulushiga ega.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,1 %), Termiz (9,3 %), Denov (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Boysun (5,9 %), Sherobod (5,8 %), Sho'rchi (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,2 %), Qiziriq (4,7 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,1 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,8 %) va Bandixon (1,7 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (17,6 %), Uzun (9,8 %), Termiz sh. (9,0 %), Sariosiyo (8,2 %), Sherobod (7,4 %), Jarqo'rg'on (7,0 %), Qumqo'rg'on (7,0 %), Muzrabot (5,5 %), Qiziriq (5,1 %), Angor (4,7 %), Oltinsoy (4,7 %), Sho'rchi (4,3 %), Boysun (3,9 %), Termiz (3,1 %) va Bandixon (2,7 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, and several menu items: ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, KONTAKTLAR. A search bar is present with the placeholder "Rasmidagi kodni kiriting" (Enter the code in the document) and a "Qidiruv" (Search) button. To the left, there is a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search area has a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" which lists Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. The right sidebar is titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" and lists Aholini ro'yxtatga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-relezzlar, Choraklik natijalar, Nashriar – statistika haqida, Uslubly materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**